BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 19/04.07.2023.I.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

RO‘ZIYEV ABDUMALIK ORTIG‘ALIYEVICH

MILLIY IQTISODIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ISTIQBOLLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent - 2025

UO‘T: 330.341.1: 004: 9

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (Dsc) диссертации

Content of the Doktoral (DSc) Dissertation Abstract

Ro‘ziev Abdumalik Ortig‘aliyevich
Milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarning istiqbolli rivojlanishini baholash metodologiyasini takomillashtirish..... 5

Рузиев Абдумалик Артигалиевич
Совершенствование методологии оценки перспективного развития цифровых технологий в националной экономике..... 33

Ruziev Abdumalik Artigalievich
Improving the methodology for assessing the prospects for the development of digital technologies in the national economy..... 63

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 67
.

BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 19/04.07.2023.I.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

RO‘ZIYEV ABDUMALIK ORTIG‘ALIYEVICH

MILLIY IQTISODIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ISTIQBOLLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent - 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B22024.2DSc/Iqt733 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Suyunov Dilmurod Xolmurodovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy oponentlar:	**Abduvoxidov Abdumalik Maxkamovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Xoshimov Elmurod Abdusattorovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Qo‘chqorov Tohir Safarovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent axborot texnologiyalari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Biznes va tadbirkorlik Oliy maktabi huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc. 19/04.07.2023.I.88.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «____» _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Mirobod ko‘chasi, 25-uy. Tel.: (99871) 239-03-05; faks: (99871) 239-03-03; e-mail: info@rgsbm.uz.

Dissertatsiya bilan Biznes va tadbirkorlik Oliy maktabining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo‘limida tanishish mumkin (__ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod ko‘chasi, 25-uy. Tel.: (99871) 239-03-05; faks: (99871) 239-03-03; e-mail: info@rgsbm.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «____» _____kuni tarqatildi.
(2025 yil «____» _____dagi «____»_ raqamli reestr bayonnomasi).

D.X. Suyunov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

T.U. Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

A.T. Kenjabaev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi davrda iqtisodiyot rivojlanishining asosiy omili sifatida e'tirof etilayotgan va jad'al takomillashgan holda rivojlanib borayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari kechmoqda. Ilg'or raqamli texnologiyalarga kiritilayotgan investitsiyalarning umumjahon xarajatlaridagi ulushi barqaror o'sib borish xususiyatlariga ega bo'lgan holda 2023 yilda 23,4 foizga etdi[1]. Jahon raqamli iqtisodiyotining deyarli uchdan ikki qismi AQSH va Xitoyga to'g'ri keladi. Jahon texnologiya xarajatlarida dunyo aholisining 4,2 foizi va jahon yalpi ichki mahsulotning 26 foiziga ega bo'lgan AQSHning ulushi 42 foizni tashkil qiladi. Xitoy iqtisodiyotida elektron tijorat raqamli iqtisodiyotning eng katta ulushiga ega bo'lib, 2024 yilda chakana savdoning 39 foizi onlayn xarid qilingan va 2028 yilga kelib 41 foizga ko'tariladi[2].

Milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarning istiqbolli rivojlanishini baholash metodologiyasini takomillashtirishda bir qator muammolar mavjud. Jumladan, raqamli texnologiyalar rivojlanish sur'ati juda tez bo'lgani sababli, ularni baholashdagi mezonlar tizimi doimiy yangilab borishni talab etadi. Ikkinchidan, turli mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotning notekis rivojlanayotganligi va taqdim etilayotgan statistik ma'lumotlarning sifat jihatidan farq qilishi natijalarni tahlil etishda va ularni baholashda bir qator murakkabliklarga olib keladi. Uchinchidan, xalqaro amaliyotda raqamli texnologiyalar samaradorligini aniq o'lchash uchun yagona xalqaro indikatorlar tizimi to'liq shakllantirilmaganligi bois bu indikatorlarni asoslash va qo'llash metodolgogiyasi ishlab chiqilmagan. Ilmiy manbalarda nashr etilgan turli indesli baholash uslubiyotlari ko'proq nazariy ahamiyatga ega bo'lib, real holatda amaliyotga qo'llashda turli metodologik qiyinchiliklarga olib keladi. To'rtinchidan esa, raqamli transformatsiyaning iqtisodiyotga ta'sirini tizimli baholashga integral yondashuvlar kam ishlab chiqilgan. Bu omillar milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar istiqbolini ilmiy asosda baholashni va rivojlanish asoslarini takomillashtirishni murakkablashtiradi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan YAngi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash borasida raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 barobar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan[3]. Jumladan, raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali barcha aholi maskanlarini va ijtimoiy ob'ektlarni hamda magistral avtomobil yo'llarini keng yo'lakli ulanish tarmoqlari bilan qamrab olish; iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish hamda operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026 yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish, dasturiy

[1] IDC [IDC (2020). Global ICT Spending. Forecast 2020–2023].

[2] Michael O'Grady. The Global Digital Economy Will Reach $16.5 Trillion And Capture 17% Of Global GDP By 2028. Forecast Analyst. July 23 2024. https://www.forrester.com/blogs/the-global-digital-economy-will-reach-16-5-trillion-and-capture-17-of-global-gdp-by-2028/

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmoniga 1-ilova.

mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, eksportini esa 10 baravar oshirib 500 million AQSH dollariga etkazish, BMTning Elektron hukumat reytingida top-30 talikka kirishga erishish belgilangan. Buning uchun milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlari samaradorligini oshirish va ularni baholash kerak bo‘ladi. O‘zbekiston sharoitida raqamli texnologiyalarning istiqbolli rivojlanishini baholashda, avvalo xalqaro mezonlarga mos milliy indikatorlar metodologiyasini ishlab chiqish zarur. Bu o‘z navbatida, ma’lumotlarning sifatini ta’minlash hamda turli manbalardan real vaqt tartibida ma’lumot yig‘‘ish tizimini yaratishni talab etadi. Bundan tashqari, raqamli transformatsiyaning ijtimoiy va ekologik ta’sirini ESG mezonlari bilan integratsiya qilish hamda kiberxavfsizlik standartlarini kuchaytirish kerak. Bu sanab utilgan vazifalar rakamli texnogiyalarning istiqbolli rivojlanishini milliy iqtisodiyotda baholash metodologiyasini takomillashtirishni talab etadi. Bular o‘z navbatida mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan YAngi O‘zbekistonnning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari va 2020 yil 28 apreldagi PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikamizdagi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ITD-2 “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[4]. Raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar faoliyatining barqarorligini raqamlashtirish

[4] Dissertatsiya ishida quyidagi xorijiy ilmiy-tadqiqotlar va iqtisodchi olimlarning ilmiy- izlanishlaridan foydalanilgan: Munger M.C. Tomorrow 3.0: transaction costs and the sharing economy. Cambridge: Cambridge University Press., 2018. -173 p.; Negroponte N. Being Digital. New York: New York Vintage Books, 1995. - 255 p.; IMF: Digital Technology: How It Could Transform the International Monetary System. https://www.imf.org/en/News/Articles/2021/06/30/sp063021; IMF (2018). Measuring the digital economy. IMF staff Report.; PwC Global CBDC Index 2021. URL: https://www.pwc.com/gx/en/industries/financial- services/assets/pwc-cbdc-global-index-1st-edition-april-2021.pdf; Bank for International Settlements, BIS; Goldfarb A., Greenstein S.M., Tucker C. Economic analysis of the digital economy. University of Chicago Press, 2015.- 497 p.; Sharing Economy: Making Supply Meet Demand. Ed. by Ming Hu. Cham: Springer International Publishing, 2019. -528 p.; Slee T. Deins IST Meins: die unbequemen Wahrheiten der Sharing Economy. München: Verlag Antje Kunstmann, 2016. - 269 p.; Sundararajan A. The Sharing Economy. Qe End of Employment and Qe Rise of Crowd-Based Capitalism. Cambridge, Massachusetts: MIT Press, 2016.- 240 p.; Heinemann G., Gehrckens H.M., Täuber T., Herausgebern. Handel mit Mehrwert: Digitaler Wandel in Märkten, GeschäRsmodellen und GeschäRssystemen. Wiesbaden: Springer Gabler, 2019.- 510p.; Ke Hua, Chai Shiwei, Cheng Rong Selling or sharing: Business model selection problem for an automobile manufacturer with uncertain information. Journal of Intelligent & Fuzzy Systems, 2019. vol. 36, - pp. 609–624.; Lukesch M. Sharing Economy in der Logistik: ein theoriebasiertes Konzept für Online-Mitfahrdienste. Wiesbaden: Springer Gabler, 2019. - 347 p.; Mair J., Reischauer G. Capturing the dynamics of the sharing economy: Institutional research on

asosida ta’minlashga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy tadqiqotlar jahondagi yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, International Telecommunication Union, Earth Institute Columbia University va GSM Association, McKinsey&Company, Berlin texnika universiteti (Technische Universit¨at Berlin), Parij Sorbonna Universiteti (University of Paris Sorbonne, Fransiya), CHikago universiteti (The University of Chicago, USA), Osiyo taraqqiyot banki (Asian Development Bank) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Raqamli texnologiyalar faoliyatining milliy iqtisodiyotga ta’siri va milliy iqtisodiyot sohalarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish yo‘nalishida yetakchi jahon ilmiy tadqiqot muassasalarida olib borilayotgan tadqiqotlarda ko‘plab ilmiy yutuqlarga erishilgan, jumladan, raqamli texnologiyalar rivojlanishining barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishga mosligi xususiyatlari aniqlangan (International Telecommunication Union, Earth Institute Columbia University va GSM Association), 2030 yilga borib, raqamli texnologiyalarning rivojlanish tendentsiyasi global miqyosda 20 milliondan 50 milliongacha ish o‘rni yaratilishiga imkon berishi mumkinligi, 2030 yilga kelib dunyo bo‘yicha ishchilarning 3 foizdan 14 foizigacha (75 milliondan 375 milliongacha) yangi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi va kasblarini almashtirishi zarurligi, 2016-2030 yillar oralig‘ida dunyo bo‘ylab an’anavaiy ish o‘rinlaridan 400 milliondan 800 milliongacha ish o‘rni qisqarib ketishi ehtimoli mavjudligi ilmiy jihatdan prognoz qilingan (McKinsey&Company), milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni joriy etilishi tranzaktsiya xarajatlarini kamaytirishi bilan birga yangi ish o‘rinlari va daromad manbalarini ochib berishi imkoniyatlari asoslab berilgan (University of Paris Sorbonne, Fransiya), raqamli xizmatlarni ko‘rsatishda raqamli platformalardan foydalanish afzalligi aniqlab berilgan (Technische Universität Berlin), kvant axborotlardan foydalanish yo‘nalishida mahalliy kvant tarmoqlari yaratilgan va kvant xavfsizlik protokollari ishlab chiqilgan (The University of Chicago), raqamli texnologiyalar yordamida mintaqadagi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun mintaqaviy hamkorlik siyosatini ishlab chiqish, salohiyatni oshirish mexanizmi tavsiya etilgan (Asian Development Bank)[5].

Hozirgi davrda dunyodagi yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va nufuzli oliy o‘quv yurtlari hamda sohadagi nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan milliy iqtisodiyotning raqamli texnologiyalarga asoslangan institutsional asoslarini takomillashtirish, biznes-jarayonlarni innovatsion raqamli texnologiyalar asosida optimallashtirish, milliy iqtisodiyotni raqamli iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, raqamli iqtiosdiyot va texnologiyalarini rivojlanishida milliy iqtisodiyotga ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirini minimallashtirish, mintaqaviy raqobatbardoshlik va inklyuziv o‘sish uchun

---

the plural forms and practices of sharing economy organizations. Technological Forecasting & Social Change, December, 2017 vol. 125, pp. 11–20.; Matthew D. Sharing: crime against capitalism. Cambridge, UK; Malden, MA: Polity, 2017. - 200 p.; McKee D. Law and the “sharing economy”: regulating online market platforms. Ottawa: University of Ottawa Press, 2018. 281 p.; Pedro F., Márquez G., Lev B. Data Science and Digital Business. Cham: Springer International Publishing, 2019. - 316 p.; Stojanović Dr. Digital economy and business process transformation: Challenges and risks. Ekonomija: teorija i praksa, 01 January, 2017. vol. 10, - pp. 80–90.; Kaplan S. The Words of Risk Analysis//Risk Analysis. 1997. N17(4). P. 407–417; CAREC Digital Strategy 2030. Asian Development Bank, 2022. - 82 p.

[5] CAREC Digital Strategy 2030. Asian Development Bank, 2022.

raqamli transformatsiyani jadallashtirish, biznes-jarayonlarda boshqaruv natijaviyligi va samaradorligini oshirish, kiberhujumlarga va boshqa inqirozlarga chidamli xavfsiz, kengaytiriladigan va funktsional mos bo‘lgan raqamli platformalar hamda raqamli infratuzilma yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Iqtisodiyotning turli sohalarida, boshqaruvning turli darajalarida raqamlashtirishning o‘rni va rolini asoslashning nazariy, uslubiy va amaliy masalalari, raqamli texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotning mohiyati, raqamli texnologiyalar asosida iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash masalalari xorijlik olimlar – X.Varian, A.Gaver, E.N.Veduta, T.N.Djakubova, E.V.Kupchishina, N. Negroponte, M.Skilton, N.M.Rozanova, D.Tapskott, G.P.Dias, R.Buxt, R.Xiks, S.CHia, S.Van, L.V.Lapidus, E.B. Balashov, L.U.Maknayt, Dj.P.Beyli, A.N. Kirillova, K.P. Grabovoy, R.Bergerlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan[6].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan S.S.G‘ulomov, A.T.SHermuxamedov, D.X.Suyunov, A.N.Aripov, T.K.Iminov, T.Z.Teshabaev, A.T.Kenjabaev, I.E Jukovskaya, N.Maxmudov, N.X.Jumaev, T.S.Kuchkarov, B.YU.Xodiev, E.A.Xoshimovlarning izlanishlarida respublikamizda milliy iqtisodiyotni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan[7].

---

[6] Varian H. Intelligent Technology // Finance and Development, 2016. Vol. 53. No. 3. P. 6-9.; Gawer A. Bridging Differing Perspectives on Technological Platforms: Toward an Integrative Framework // Research Policy, 2014. Vol. 43, no. 7. P. 1239-1249.; Ведута Е.Н., Джакубова Т.Н. Стратегии цифровой экономики // Государственное управление. Электронный вестник, 2017. - № 63. - С. 43–66.; Купчишина Е.В. Эволюция концепций цифровой экономики как феномена неэкономики // Государственное управление. Электронный вестник. 2018. - № 68. - С. 426-444.; Negroponte N. Being Digital. New York: Knopf, 1995.; Skilton M. Building the Digital Enterprise: A Guide to Constructing Monetization Models Using Digital Technologies. Berlin: Springer, 2015. 230 p.; Розанова Н.М. Сетевая конкуренция как фактор конфигурации современных рынков. Мировая экономика и международные отношения, 2016, т. 60, № 4, сс. 13-20.; Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. New York: McGraw-Hill, 1996. 342 p; Dias G.P. A decade of Portuguese Research in E-Government: Evolution, Current Standing, and Ways Forward // Electronic Government, an International Journal (EG), 2016. Vol. 12. No. 3. P. 201-222.; Бухт Р., Хикс Р. Определение, концепция и измерение цифровой экономики // Вестник международных организаций, 2018. - Т. 13. – № 2. – С. 143–172.; Cheah, S.; Wang, S. Big data-driven business model innovation by traditional industries in the Chinese economy. J. Chin. Econ. Foreign Trade Stud, 2017, 10, 229-251.; Лапидус Л.В. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией. - Москва: ИНФРА-М, 2019. - 478 с.; Балашов Е.Б. Методология бизнес-процессов в городском хозяйстве в условиях цифровой трансформации. Монография / Е.Б. Балашов, А.Н. Кириллова, К.П. Грабовой. - Москва: Научный консультант, 2021. - 304 с.; Berger R. The digital transformation of industry.The study commissioned by the Federation of German Industries (BDI), Munich– 2015.

[7] Gulamov S.S., Shermukhamedov A.T. Digital economy in the Republic of Uzbekistan: Development of the electronic government/J. Theoretical & Applied Science» N. 10(66). October, 2018. – Philadelphia, USA: 2018.-347-354 pp; Суюнов Д.Х. Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётнинг жорий қилиниши ва ривожланиш ҳолатининг таҳлили. Халқаро илмий-амалий конференция: Бизнес ва иқтисодиётда рақамли трансформация. 21.06.2023. –Т.: 2023. Б. 84-91, Teshabayev T.Z., Bobokhujaev SH.I., Otakuziyeva Z.M. Specificity of conceptual development of information economy in Uzbekistan. Curran Associates, Inc. Red Hook, NY USA, 2019.; Кенжабаев А.Т. Современное содержание и понятие цифровой экономики // Экономика и бизнес: теория и практика, 2021. – С.143-146.; Жуковская И.Е. Совершенствование методологии использования информационно-коммуникационных технологий в статистической деятельности в условиях формирования цифровой экономики: Автореф. дис. докт. эконом. наук (DSc) по специальности 08.00.14 – Информационные системы в технологии в экономике. Ташкент. 2020; Турсунов С.Қ., Аюпов Р,Ҳ. Рақамли технологиялар: инновациялар ва ривожланиш истиқболлари. Тошкент, Нодирабегим нашриёти, 2020. 362-б.; Жумаев Н.Х. «Рақамли иқтисодиётсиз мамлакат иқтисодиётининг келажаги йўқ». «Янги Ўзбекистон», 2020 йил. 30 сентябрь, 167-сон. – 4 б.; Кучкаров Т.С. Совершенствование информационной системы казначейства Республики Узбекистан в условиях цифровой экономики: автореф. дис. докт. эконом. наук (DSc) по специальности 08.00.14 Информационные системы и технологии в экономике. Ташкент, 2019. – 76 с.; Ходиев Б.Ю. Узбекистан: построение цифровой экономики // Российский

Biroq, mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar rivojlanishini baholashning nazariy-metodologik muammolari mustaqil tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilmagan.

Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi ilmiy-tadiqot ishlari rejasi bilan bog‘liq holda bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi raqamli texnologiyalar rivojlanishida iqtisodiy resurslar majmuasidan (IRM) samarali foydalanish darajasini oshirishni baholashning nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi xususiyatlarini tadqiq etish;

milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni axborot bilan ta’minlash usullari, shuningdek, iqtisodiyotni raqamlashtirishni hisobga olgan holda iqtisodiy resurslar majmuasidan foydalanish samaraliligi tahlilini o‘tkazish;

xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun zarur bo‘lgan raqamli texnologiyalarga asoslangan yangicha iqtisodiy faoliyatning axborot resurslarini aniqlash va tizimlashtirish;

raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda jamiyat tomonidan to‘plangan iqtisodiy resurslar majmuasidagi axborot resurslarining o‘rni va ahamiyatini asoslash;

raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyat muhitida iqtisodiy resurslar majmuasidagi axborot resurslarining mavjudligi va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish;

axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori rivojlanishi uchun tegishli axborotlar ta’minotini tizimli tahlil etish;

raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron hukumatni rivojlantirish samradorligiini oshirishga qaratilgan yondashuvni ishlab chiqish;

«Raqamli O‘zbekiston-2030» Strategiyasi maqsadli ko‘rsatkichlarini tahlil etishga konseptual yondashishni ishlab chiqish;

milliy iqtisodiyotda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan raqamli texnologiyalar amaliyotini qo‘llashga yondashuvni asoslash;

O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni istiqbolli rivojlantirish yo‘llari va yo‘nalishlarini aniqlash.

Tadqiqot ob’ekti milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalar faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish jarayonlari.

Tadqiqot predmeti - raqamli texnologiyalarga asoslangan yangicha iqtisodiy faoliyat muhitini shakllantirishdagi iqtisodiy jarayonlar tizimi hisoblanadi.

внешнеэкономический вестник, 2017. - №12. – С.3-12; Хошимов Э.А. Рақамли иқтисодиёт шароитида Ўзбекистон Республикаси валюта сиёсатини такомиллаштиришнинг методологик жиҳатлари. 08.00.07 – «Молия, пул муомаласи ва кредит» 08.00.16 – «Рақамли иқтисодиёт ва халқаро рақамли интеграция» мутахассислиги бўйича иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати.Тошкент, 2022.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida tizimli yondashuv metodologiyasi, abstraktsiyalash, guruhlash, analiz, sintez, tizimli yondashuv, jarayonli yondashuv, qiyosiy taqqoslash, iqtisodiy va statistik tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, oraliq tahlil va o‘sish sur’atlari usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar qo‘llashni takomillashtirish bilan bog‘liq jarayonlarni tadqiq etishning nazariy-uslubiy asoslari ishlab chiqilgan va uni tadbiq etishni tizimli baholash metodologiyasi rivojlantirilgan hamda amaliy jihatlari asoslangan;

milliy iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida raqamli texnologiyalarga asoslangan faoliyatni axborot bilan ta’minlashning yangi usullari belgilangan, bu usullarda ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan intellektual qayta ishlash va bir nechta tadbirkorlik sub’ektlari bilan AT infratuzilmasidan birgalikda foydalanish zarurati asoslangan;

ma’lumotlarni boshqarish axborot tizimini amalga oshirishni raqamli texnologiyalar faoliyati sifatida qaralishi kerakligi asoslangan hamda elektron hukumat elementlari tizimining mantiqiy-funktsional bog‘liqlik sxemasi ishlab chiqilgan;

milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarning samaradorligini oshirishga uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan; unda predmet sohada birinchi bo‘lib mamlakatda raqamlashtirilgan axborot resurslarining iqtisodiy funktsionallik indeksi (MRARIIFI) tushunchasi ishlab chiqilgan;

raqamli texnologiyalar faoliyatida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning miqdoriy va axborot-tahlil metodologiyasi hamda «Raqamli O‘zbekiston-2030» Strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari tahliliga o‘zaro tizimli yondashuv ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni istiqbolli rivojlantirishda tizimli baholash usullarini qo‘llash amaliyoti asoslangan;

amaliy raqamli platformalar samaradorligini oshirishda iqtisodiyot rivojlantirilishi doirasida baholash usullaridan foydalanishning joriy ahamiyati yoritilgan;

raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishning asosiy omili iqtisodiy o‘sish doirasida ekanligi asoslangan;

O‘zbekiston hududlari va iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish indekatorlarini joriy etishda ma’lumotlarni tizimlashtirish faoliyati belgilangan;

raqamli texnologiyalar rivojlanish darajasini aniqlash amaliyoti miqdoriy usullari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, raqamli texnologiyalar vazirligi ma’lumotlaridan, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, raqamli texnologiyalar va axborot faoliyatini tartibga solish sohasidagi amaldagi me’yoriy-huquqiy bazadan foydalanilganligi, ilg‘or xorijiy olimlarning nazariy tadqiqotlarini o‘rganish va umumlashtirish natijalariga, amaliy hamda faktologik ma’lumotlarning tahlillariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda ishlab chiqilgan ilmiy natijalar, nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalardan raqamli iqtisodiyot nazariyasini rivojlantirishda, O‘zbekiston korxonalari faoliyatini barqarorlashtirishda, Oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayonida, O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligida manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar muhitini yaratishda iqtisodiy faoliyatning axborot resurslarini boshqarishda, «Raqamli O‘zbekiston – 2030» va «O‘zbekiston – 2030» strategiyalarini amalga oshirish va uni samarali olib borish chora-tadbirlari, raqamli texnologiyalarni milliy iqtisodiyotga joriy etish yuzasidan qabul qilinayotgan farmon va qarorlar, dasturlar va chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda, shuningdek, raqamli iqtisodiyot nazariyasi hamda amaliyotiga oid o‘quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarning istiqbolli rivojlanishini baholash metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Axborot (ma’lumot) resurslari dinamikasining monitoringini olib borish hamda ularni optimallashtirish mumkin bo‘lgan jihatlarini aniqlash taklifi «UZTELEKOM» AKda qo‘llanilgan («UZTELEKOM» AKning 2025 yil, 22 avgustdagi 09-106-sonli ma’lumotnomasi), aniq sharoitlarda bu resurslardan foydalanish natijasida mehnat unumdorligi 3-4 %ga oshgan, tadqiqot ishida taklif etilgan ma’lumotlarni shakllantirishga yondashuvni tatbiq etilishi natijasida bu ishlarni yuritishga ketadigan xarajatlar 3-5 %gacha qisqargan («UZTELEKOM» AKning 2025 yil, 22 avgustdagi 09-106-sonli ma’lumotnomasi).

Mamlakatni raqamlashtirishda axborot resurslarining iqtisodiy funktsionallik indeksini amalda qo‘llanilishi natijasida raqamli texnologiyalar infratuzilmasi ko‘rinishidagi «UZTELEKOM» AK faoliyati samaradorligi 5 %ga oshgan («UZTELEKOM» AKning 2025-yil, 22-avgustdagi 09-106-sonli ma’lumotnomasi).

«Raqamli O‘zbekiston-2030» Strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlarini raqamlashtirish sohasidagi joriy statistik ma’lumotlar bilan bog‘liqligini aniqlashning tizimli tahlillari usullarini «UZTELEKOM» AKda qo‘llash natijasida, kompaniya mijozlari bilan ishlash unumdorligi 5-7%ga oshgan va bu ishlarni raqamlashtirish evaziga xarajatlar 3-5 %ga tejalishi hisob-kitob qilingan («UZTELEKOM» AKning 2025 yil, 22 avgustdagi 09-106-sonli ma’lumotnomasi).

«O‘zbekiston sanoat-qurilish banki» ATB faoliyatida tadbirkorlik sub’ektlari bilan ishlash jarayoniga dissertatsiya tadqiqoti taklif va tavsiyalar, ishlab chiqilgan metodologiyalarni joriy etilishi axborot (ma’lumot) resurslari va jarayonlarini optimallashtirish imkonini bergan va bu resurslardan foydalanish natijasida unumdorlik 4-6 %ga oshib, taklif etilgan yondashuvni tatbiq etish natijasida tegishli ma’lumotlarni shakllantirishga ketadigan xarajatlar 6-8 %gacha qisqargan va umumiy faoliyat samaradorligi 5-7 %gacha oshgan («O‘zbekiston sanoat-qurilish banki» ATBning 2025 yil, 21 avgustdagi № 01-01/19965-sonli ma’lumotnomasi).

Raqamlashtirish sohasidagi joriy statistik ma’lumotlarni «Raqamli O‘zbekiston-2030» Strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqligini tizimli tahlillari bo‘yicha xulosalarini «O‘zbekiston sanoat-qurilish banki» ATB faoliyatida qo‘llash natijasida mehnat unumdorligi 4-6 %ga oshgan («O‘zbekiston sanoat-qurilish banki» ATBning 2025 yil, 21 avgustdagi № 01-01/19965-sonli ma’lumotnomasi).

Axborot jarayonlarini raqamlashtirishda tegishli axborot resurslarining iqtisodiy funktsionallik indeksini amalda qo‘llanilishi natijasi bank mijozlari bilan faoliyatni yuritishga ketadigan umumiy xarajatlarning 7 %ga tejab qolinishiga imkon bergan («O‘zbekiston sanoat-qurilish banki» ATBning 2025 yil, 21 avgustdagi № 01-01/19965-sonli ma’lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan 4 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta ilmiy monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola (7 ta mahalliy va 4 ta xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi hamda asosiy vazifalari, ob’ekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni tadqiq etishning nazariy va metodologik asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish, raqamli transformatsiya jarayonlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi munosabatlar, raqamli texnologiyalar rivojlanishining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini baholash nazariyasi, raqamlashtirishni samaradorligini baholash usullari, milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar va axborot resurslarini tadqiq etish jahon tajribasi o‘rganilgan va umumlashtirilgan.

Raqamli transformatsiya jarayonlari iqtisodiyotning turli tarmoqlari, biznes va boshqaruv modellari, g‘oyalar, iqtisodiy munosabatlar va ijtimoiy amaliyotni zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda qayta shakllantirilishini ko‘zda tutadi. O‘zaro bog‘liq raqamli texnologiyalar va ilovalarning kengayuvchan ekotizimlari bilan to‘ldirib boriladigan o‘zaro bog‘liq raqamlashtirish va umumiy o‘zaro bog‘lanish texnologiyalari raqamli transformatsiyaning asosiy

harakatlantiruvchi omillari hisoblanadi. Bulutli hisoblash texnologiyalari, taqsimlangan registrlar, additiv ishlab chiqarish, kengaytirilgan haqiqat va boshqalar yordamida shakllantiriladigan buyumlar interneti, bashoratli tahlillar, sun'iy intellekt, robototexnika bu ekotizimning asosiy komponentlari hisoblanadi.

Yetakchi mamlakatlar amaliyotida raqamli transformatsiyani tavsiflash yangi texnologiyalarni joriy etilishini qo'llab-quvvatlashning tarmoqli tamoyiliga asoslangan yondashuvni ko'zda tutadi. Bunda dasturlar va loyihalar biron-bir istiqbolli texnologiyalar guruhini qo'llanishi o'ta dolzarb hisoblangan bir nechta tarmoqlarda joriy etish tamoyili bo'yicha qurilishi mumkin, aksincha, ikkinchi yondashuvda iqtisodiyotning muayyan sektori yoki ijtimoiy sohada talab qilinayotgan ko'plab turli jinsdagi texnologik echimlarni aniq bir tarmoqqa jadal tatbiq etish yordamida ham raqamli transformatsiya ta'minlanishi mumkin.

D.Yu.Lyu, S.V.Chen va T.S.Chjoularning fikricha raqamli transformatsiya raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalar va biznes jarayonlari integratsiyasini ta'minlaydigan tashkiliy transformatsiyadir[8].

S.Matt, T.Xess va A.Benlian o'z tadqiqotlarida raqamli transformatsiya tushunchasini kompaniyalarda raqamli texnologiyalar integratsiyasi natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlarni, shuningdek, transformatsiyadan keyin ularning operatsiyalarini boshqarishni qo'llab-quvvatlaydigan reja deb talqin qiladi[9].

T.Xess raqamli transformatsiya raqamli texnologiyalarning kompaniyaning biznes modeliga kiritishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi va natijada mahsulot yoki tashkiliy tuzilmalar o'zgarishi va jarayonlarni avtomatlashtirilishiga urg'u beradi[10]. S.Bondar, Y.K.Xsu, A.Pfouga va Y.Stjepandich raqamli transformatsiya iqtisodiyot barcha sektorlarining izchil hamkorlikka kirishishi va raqamli iqtisodiyotning yangi muhitiga moslashishidir degan yondashuvni ilgari suradi[11].

Raqamli transformatsiyani raqamli texnologiyalarni biznesning barcha tarmoqlariga integratsiyalashuvi hamda ish uslubi va mijozlarga qiymat etkazib berishni tubdan o'zgartiruvchi jarayon ekanligi K.Gebaev, I.R.Xardini, G.X.A.Pandjaytan va N.B.Kurniavanning tadqiqotlarida o'z aksini topgan[12].

G.Vesterman tadqiqotlarida raqamli transformatsiyani kompyuter texnologiyalarining ortib borayotgan ta'siri va imkoniyatlariga javoban biznes-faoliyatni amalga oshirish, korxona natijadorligi, hodisalar, amaliyotlar va modellar samaradorligini oshirishning tezkor texnologik innovatsiyasi sifatida talqin qiladi[13].

---

[8] Liu D. Y., Chen S. W., Chou T. C. Resource fit in digital transformation: Lessons learned from the CBC Bank global e-banking project. Management Decision, 2011, 49(10), 1728-1742.

[9] Matt, C., Hess, T., & Benlian, A. Digital Transformation Strategies. Business & Information Systems Engineering, 2015, 57(5), pp. 339–343.

[10] Hess T. Options for formulating a digital transformation strategy. MIS Quarterly Executive. 2016, 15(2), pp. 123-139, ISSN 15401960.

[11] Bondar S., Hsu J. C., Pfouga A., Stjepandić J. Agile digital transformation of system-of-systems architecture models using Zachman framework. Journal of Industrial Information Integration, 7, 2017, pp. 33–43.

[12] Gebayew C., Hardini I.R., Panjaitan G.H.A., Kurniawan N. B. A Systematic Literature Review on Digital Transformation. 2018 International Conference on Information Technology Systems and Innovation (ICITSI). 2018. doi:10.1109/icitsi.2018.8695912.

[13] Westerman G. Revamping your business through digital transformation. MIT Sloan Management Review, 56(3), 2015, - pp. 2-5, ISSN 15329194.

L.V.Lapidus raqamli transformatsiyani ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonlarining, shuningdek, davlat boshqaruvi mexanizmlarining raqamli texnologiyalar ta'sirida o'zgarishi deb tavsiflaydi[14].

Dissertant tomonidan «raqamli transformatsiya - raqamli texnologiyalarni joriy etilishi natijasida biznes-jarayonlar yoki iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish usullarida (biznes modellarida) ahamiyatga ega ijtimoiy-iqtisodiy samaralarga olib keluvchi sifatli o'zgarishlardir» deb mualliflik talqini ishlab chiqilgan. Raqamli texnologiyalardan keng miqyosda foydalanish bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barcha sohalarida iqtisodiy faoliyat sub'ektlari va jarayonlari bo'yicha to'plangan raqamli ma'lumotlar massivini iqtisodiy axborot tizimlarida to'liq va samarali harakatlanishini (RMMTSH) taqozo etishi bunday transformatsiyaning o'ziga xos xususiyati sifatida talqin qilingan.

Tadqiqotchi ilgari surilgan nazariyalarga asoslanib ilmiy muomalaga «raqamli iqtisodiyot» tushunchasi bilan bir vaqtda «raqamlashtirilgan iqtisodiyot» tushunchasini ham kiritish hamda iqtisodiyotni uch bosqichli tizim ko'rinishda taqdim etish taklif etilgan (1-rasm).



1-rasm. Raqamli transformatsiya jarayonlarida iqtisodiyotning uch bosqichli tizim darajalari[15]

Raqamli iqtisodiyotni raqamlashtirilgan iqtisodiyotdan shu tarzda ajratib olib, faoliyat yuritilishi bevosita AKTga bog'liq bo'lgan raqamli iqtisodiyot hajmini haqiqatga yaqin bo'lgan ko'rsatkichlarda baholash, demak, RMMTSHni ruyobga chiqarish kerak bo'ladi.

[14] Лапидус Л.В. Цифровая экономика. Управление электронным бизнесом и электронной коммерцией. Учебник. М.: ИНФРА-М, 2019,- 348 с.

[15] Chizma muallif tomonidan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

Umumiy xulosa shundan iboratki, aksariyat holatlarda O‘zbekiston yetakchi davlatlardan ortda qolsada oxirgi yillarda axborotlashgan jamiyat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha ahamiyatli chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Shu bilan birga rivojlanishdan ortda qolish sabablarini aniqlash va uni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishga tayyorlik darajasini yanada batafsil va har tomonlama majmuaviy tahlil qilish, ularning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga ta’sirini baholashni taqozo etadi.

Yuqorida ta’kidlangan fikrlar raqamli iqtisodiyot raqamli mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishdan iborat bo‘lgan shunchaki iqtisodiy faoliyat emas degan xulosaga kelishga imkon beradi. Eng muhim bo‘lgan jihat shuki, umumiy holda «nima» raqamlashtirilishi kerak degan savolga iqtisodiy tafakkur nuqtai nazaridan javob berish zarur.

Mamlakatda raqamli iqtisodiyotni yaratishning asosi bo‘lgan raqamlashtirish jarayonlari hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omiliga aylanishi zarur. Raqamlashtirish darajasining holati va salohiyatini baholash makrodarajada, mezodarajada, submezodarajada ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘ladi. O‘z navbatida raqamli iqtisodiyotning rivojlanib borishi nafaqat tashqi va ichki biznes muhitga, balki siyosiy hukumat funktsiyalariga ham ta’sir ko‘rsatib, raqamli transformatsiya jarayonlarini sifatli amalga oshirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda raqamlashtirish iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning global paradigmalaridan biri hisoblanadi. Bu holat xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar va faoliyatning deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan holda transformatsiyalashuv jarayonlarini tezlashtiradi, bu esa o‘z-o‘zidan iqtisodiyotda va umuman jamiyatda innovatsion jarayonlarning tez sur’atlarda o‘sishiga olib keladi. Zamonaviy voqelikda raqamli axborotlar rivojlanishning eng muhim resursiga aylanmoqdaki, buni raqamli texnologiyalardan o‘zaro hamkorlik shakli sifatida faol foydalanayotgan yuridik va jismoniy shaxslar oqimining har daqiqada ortib borayotgani bilan izohlash mumkin. O‘z navbatida, raqamli transformatsiya jarayonlarining ijobiy dinamikasi jahon iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishi sohasidagi taraqqiyotni belgilovchi munosabatlar zanjirini keltirib chiqaradi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, raqamli iqtisodiyot sharoitida bir mamlakat moliyaviy kapitali o‘zi tegishli bo‘lgan iqtisodiyot doirasidan mustaqil bo‘lib bormoqda, butun dunyo bo‘ylab kriptovalyutalarning tarqalishi natijasida yaqin kelajakda real vaqt tartibida transchegaraviy oqimlarni qisqa fursatda qayta yo‘naltirish imkoniyatining yaratilishi kapital bozorlarida talab va taklifni tezda tahrirlash imkonini yaratadi. Shunday qilib, kapital va ular bilan bog‘liq jamg‘armalar hamda investitsiyalar yagona makonga joylashib, erkin harakatlanadi va samarali foydalanish uchun yanada qulay bo‘ladi. Bu o‘z navbatida, raqamli transformatsiyaning iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sirini ko‘rsatib beradi.

Shu ma’noda, A.N. Kozirevning fikriga ko‘ra raqamli iqtisodiyot ilmiy yo‘nalish sifatida real iqtisodiyot raqamli transformatsiyasining fundamental sabablari va oqibatlarini o‘rganish, undagi raqamli mahsulot va xizmatlar ulushini, shuningdek,

raqamli texnologiyalarga asoslangan biznesning yangi shakllarini o‘rganishga yo‘naltirilgan[16].

Xalqaro reytinglarda ko‘rib chiqiladigan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ko‘rsatkichlarini baholash indekslarining alohida guruhlari tahlil qilinib, mamlakatning telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirilganligi amaldagi barcha indekslarda e’tiborga olinishi, institutsional baza va innovatsion muhit darajasi, narxlari bo‘yicha axborot-kommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, aholining bilim darajasi va AKTdan foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, aholi tomonidan internetdan foydalanish va biznesda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo‘nalishlari, davlat elektron xizmatlarining rivojlanishi, AKT sohasining rivojlanishi va yetakchi raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasidagi oqibatlari, raqamli iqtisodiyot sohasida me’yoriy-huquqiy va ilmiy-tadqiqot bazasining rivojlanganligi, biznesda AKTdan foydalanish va axborot xavfsizligini aks ettiruvchi institutsional, iqtisodiy va texnologik ko‘rsatkich kabilarni tahlil qilishi hamda ko‘proq axborotlashgan jamiyatning rivojlanish darajasini baholashga mo‘ljallangan ijtimoiy yo‘nalishga egaligi, ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyani aks ettiradi. Bu indekslarda biznes va sanoatni raqamlashtirish, elektron savdoni rivojlanganligi hisobga olinmaganligi va AKT bo‘yicha umumiy xarajatlardagi xorijiy investitsiyalarning ulushi, AKT-tarmog‘idagi xalqaro shartnomalar ulushi, AKT sektoridagi xorijiy tashkilotlarning ulushi kabi xalqaro hamkorlik ko‘rsatkichlari xech bir reyting indeksiga kiritilmaganligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **«Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga raqamli texnologiyalar ta’siri va uni baholash usullari»** nomli ikkinchi bobida milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni istiqbolli rivojlantirish konseptual modeli, tizimli baholash usullari, milliy iqtisodiyotni istiqbolli raqamlashtirish darajasini hamda raqamlashtirish jarayonlarini miqdoriy baholash va axborot tahliliy metodologiyasi masalalari yoritilgan.

Milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlari ko‘p qirrali, shu bilan birga echilishi zarur bo‘lgan masalalar to‘plamidan tashkil topganligi bois bu jarayonlarni ilmiy jihatdan tahlil etish va baholash zaruriyati dolzarblashib boraveradi. Shu bilan birga, raqamlashtirish jaryoni o‘z mohiyatiga ko‘ra ma’lum maqsadlarga qaratilgan, ammo bundagi ana shu maqsadlar turli ko‘rinishda va mohiyatda bo‘ladi, ayniqsa iqtisodiyotda. Bunday mantiqiy fikrlashning mavjudlik mohiyati shundaki, raqamlashtirish milliy iqtisodiyot darajasida tom ma’noda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishga va rivojlantirishga qaratilgandir. Bu yerda birlamchi vosita raqamli texnologiyalar hisoblanadi. Demak, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish raqamli texnologiyalar doirasida kechadi. Yuqorida aytib o‘tilgan iqtisodiyotdagi maqsadlar natijalari turli ko‘rinish va mohiyatda bo‘lishligini raqamli iqtisodiyotda kechadigan to‘g‘ri hamda ilmiy asosda tushunish bilan bog‘lash uchun ma’lum ma’nodagi iqtisodiyotni raqamlashtirishni baholashning miqdoriy va axborot tahlil metodologiyasini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Bu masalada taklif etilayotgan

[16]Козырев А. Н. Цифровая экономика и цифровизация в исторической ретроспективе/ А. Н. Козырев //Цифровая экономика. - 2018. - № 1 (1). - С. 5-19

yondashuvni yoritish uchun ishlab chiqilgan quyidagi sxemadan foydalanilgan (2-rasm).



2-rasm. Milliy iqtisodiyotni raqamlashtirishni baholashning miqdoriy va axborot tahlili metodologiyasi[17]

Bu yerda iqtisodiy resurslarni raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish nuqtai nazaridan foydalanish zarurligi eng muhim jihat sifatida ta’kidlangan. Shu bilan birga bunday foydalanish ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy munosabatlar va raqamli iqtisodiyotni rivojlanganligi holatidan iborat mantiqiy bog‘liqlik mavjud ekanligi ta’kidlab o‘tilgan. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy munosabatlarni o‘z ichiga oluvchi elementlar kiritilgan.

[17] Chizma muallif tomonidan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

Raqamli texnologiyalar va axborot jarayoni bevosita raqamli iqisodiyot bo‘yicha keltirilgan turli tushunchalarga mos ravishda ta’sir etadi. Bu yerda eng muhim jihat shundaki, tushunchaning qay darajada asoslangan bo‘lishiga qarab raqamli iqtisodiyotning rivojlanganligini baholash mezonlari aniqlanadi. Bu mezonlarni ishlab chiqish zaruriyati esa iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini belgilashi bilan asoslangan.

Taklif etilayotgan sxemada asosiy axborot jarayoni nimalardan iborat bo‘lish zarurligini ifodalash muhim, chunki miqdoriy va axborot tahlil metodologiyasi aynan raqamli iqtisodiyotda kechadigan jarayonlarni ifodalaydi. Bunga sabab esa shu sxemadagi eng muhim element raqamli texnologiyalar va axborot jarayonlaridir, bu metodologiya aynan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish metodologiyasi sifatida qarashga asoslanadi. Bundan tashqari, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish hozirgi kunda bevosita raqamli iqtisodiyot sharoitida kechayotganligini ifodalaydi.

Bu ko‘rsatib o‘tilgan barcha jarayonlarda miqdoriy o‘lchashlar bo‘lishi zarurligi masalasini qo‘yib, eng muhimi, aynan qanday miqdorlardan foydalanish zarurligi masalasi aniqlangan. Bunday asoslashni milliy iqtisodiyot iqtisodiy resurslari to‘plamidagi axborot resurslari va kapital resurslarining o‘rnini ko‘rsatish orqali milliy iqtisodiyotni raqamlashtirishdagi o‘rinini ko‘ratish orqali, ya’ni miqdoriy va axborot tahlil metodologiyasidagi o‘rni ko‘rsatilgan.

Miqdoriy baholashga asos bo‘luvchi ma’lumotlar to‘plamini shakllantirish mexanizmi ishlab chiqilgan. Bunda iqtisodiyotni raqamlashtirish nazariyasi va amaliyotida birinchi marta «Mamlakatda raqamlashtirilgan axborot resurslarining iqtisodiy funktsionallik indeksi» (MRARIFI) - umummetodologik xarakterdagi tushuncha kiritilgan (3-rasm).

MRARIFI – bu axborot resurslarining raqamlashtirilishi mumkin bo‘lgan jami axborotlaridan axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida foydalanish samaradorligini ko‘rsatuvchi indeks bo‘lib, uning bazaviy qiymati 1.00 punkt bo‘lgan qiymat bilan belgilanadi.

Rasmda ko‘rsatilganidek, bu mezonlar aynan iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini belgilaydi. Shu bilan birga, iqtisodiy resurslardan RIni qanoatlantirish nuqtai nazaridan foydalanish bilan bog‘liqligi, eng muhimi bu jarayonlarda qanday ma’lumotlar to‘plami ishtirok etishi kerakligi aniqlangan va bu bilan o‘z navbatida taklif etilayotgan metodologiyaning ishlash texnologiyasi belgilangan.

Shu bilan birga, chizmada ko‘rinib turganidek, bu indeksning asosiy mantiqiy-uzviy bog‘liqlik darajasini ifodalovchi elementlar keltirilgan. MRARIFI tizimlashgan kategoriya sifatida qaralib, unda «Axborotning potentsial qiymati»ni (APQ) ro‘yobga chiqarish masalasining yechimi, bu tizimlashtirilayotgan kategoriyaning negizi sifatida qaralgan.

MRARIFIni ro‘yobga chiqarishda asosiy munosabatlar uchun o‘rinli bo‘lgan umumiy matematik apparatdan foydalanilgan:

$$APQ_i\left(ARS_i, TAF_j\right) = APQ_i(RAT_i, RMAT_i) - APQ_i\left(AAJ_{ij}\right) \quad (1);$$

$$AFD_{i,j} = \frac{\int_{i=1}^{n} APQ_i(RAT_i, RMAT_i)dn}{\int_{j=1}^{m} APQ_i\left(ARS_i, TAF_j\right)dm} + \int_{j=1}^{m} APQ_i\left(AAJ_{ij}\right)dm \qquad (2).$$



3-rasm. Mamlakatda raqamlashtirilgan axborot resurslarining iqtisodiy funktsionallik indeksi (MRARIFI)[18]

1- va 2- formulalarni amalda qo‘llash 4-bobda amalga oshirilgan holda MRARIFIni aniqlashga yondashuv quyidagilarda ifoda etilgan.

O‘zbekistonda rasmiy satistika yuritilishida raqamli texnologiyalar rivojlanishini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlar tanlamasi – «Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi»da (AIETSYaYaQQU) keltirilib, umumiy holda bu YaIMdagi ulushlari to‘plamiga *P* (*P=P1+P2+P3*) belgilash kiritilgan (1-jadval).

Bunday mavjud statistik ma’lumotlar doirasida MRARIFIlar qabul qiluvchi qiymatlar sohasi aniqlanishi mumkinligi alohida e’tirof etilib, bu qiymatga nisbatan indeks umumiy tarzda 1,00 qiymatdan yuqori qiymatga ega bo‘lib boradi. Shunday

[18] Chizma muallif tomonidan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

qilib, taklif etilayotgan yondashuv MRARIFI va ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni asosida raqamli texnologiyalarning samaradorligini aniqlash belgilangan.

1-jadval.

Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi[19]

T/r	Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	2018	2019	2020	2021	2022	2023
			Umumiy ko‘rsatkichlar					
P	**Axborot iqtisodiyoti va elek-tron tijorat sektorida yara-tilgan yalpi qo‘shilgan qiymat-ning YaIMdagi ulushi (yillik)**	foiz	1,95	1,69	1,88	2,38	3,17	3,7
P1	**Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik)**	foiz	1,74	1,46	1,6	1,66	1,91	2,24
$P1_1$	AKT ishlab chiqarishda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik)	foiz	0,07	0,05	0,09	0,07	0,09	0,09
$P1_2$	AKT savdosida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik)	foiz	0,07	0,07	0,05	0,06	0,07	0,07
$P1_3$	AKT xizmatlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik)	foiz	1,6	1,34	1,46	1,53	1,74	2,07
P2	**Kontent sektori va ommaviy axborot vositalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik)**	foiz	0,19	0,18	0,19	0,21	0,22	0,23
P3	**Elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik)**	foiz	0,02	0,05	0,09	0,51	1,04	1,23

AIETSYaYaQQ YaIMdagi ulushlarida ko‘rsatilgan punktlarni «Raqamli O‘zbekiston-2030» Strategiyasida belgilab berilgan maqsadli ko‘rsatkichlarning qaysi bo‘limiga mos kelishi guruhlashtirilgan. Buning uchun Strategiyadagi *1*3 ta maqsadli ko‘rsatkichlarga *A1, A2,....., A13* belgilash kiritildi, unga ko‘ra mazmun jihatdan *A1-A5* bandlar *P1* ko‘rsatkich ichida, *A6-A9* bandlar *P*2 ko‘rsatkichi ichida, *A10-A11* bandlari *P3* ko‘rsatkichida berilgan bo‘lsa, *A12* va *A13* bandlari teng ulushlardagi ta’sir doirasida bir vaqtda *P1, P2* va *P3* ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘lishi aniqlangan.

O‘zbekiston Respublikasida 2018-2023 yil oralig‘ida axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi ko‘rsatkichlariga 4-bobni mazmunida keltirilgan marta o‘zgarish va og‘irliklarini topish formulalarini qo‘llash natijasida yillar davri bo‘yicha o‘zgarishi tendentsiyasini aniqlash uchun o‘zgarish va og‘irlik jadvali shaklantirilgan (2-jadval).

[19] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

MRARIFIni ulushiga nisbatan MFI deb belgilash kiritilgan. Bunga ko‘ra, «Raqamli O‘zbekiston-2030» Strategiyasi maqsadli ko‘rsatkichlari hamda AIETSYaYaQQning YaIMdagi ulushi (yillik) qiymatlarining tizimli tahliliga tayanib - MRARIFI=1+MFI/100. U holda, axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi bo‘yicha quyidagi tenglamalar o‘rinli bo‘ladi:

2-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida 2020-2023 yil oralig‘ida axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushining yillar davri bo‘yicha o‘zgarishi tendentsiyasi[20]

T/r		Ko‘rsatkich nomi	2020-2021		2020-2022		2020-2023	
			O‘zgarishi	Og‘irligi	O‘zgarishi	Og‘irligi	O‘zgarishi	Og‘irligi
1		2	3	4	5	6	7	8
AIETSYAYAQQning YaIMdagi ulushi								
P	**1**	**Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YAIMdagi ulushi**	**1,266**	**1,62**	**1,686**	**1,21**	**1,968**	**1,21**
P1	**1**	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YAIMdagi ulushi	1,038	1,33	1,194	0,86	1,400	0,86
P2	**2**	Kontent sektori va ommaviy axborot vositalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YAIMdagi ulushi (yillik)	1,105	1,42	1,158	0,83	1,211	0,74
P3	**3**	Elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YAIMdagi ulushi	5,667	7,26	11,556	8,31	13,667	8,40
Umumiy o‘zgarish va og‘irlik			**7,809**	**10,00**	**13,907**	**10,00**	**16,277**	**10,00**

$$MFI_k=\sum p_{i,j}; \quad i=1\text{-}3; \quad j=4,6,8 \qquad (3); \qquad MFI=\sum MFI_i, \quad i=1\text{-}3 \qquad (4).$$

Bu ishlab chiqilgan tenglamalardan amaliy foydalanish bevosita 4-bobda amalga oshirilgan.

Tadqiqot ishining **«Amaliy raqamli texnologiyalar samaradorligi va uni baholash usullarini takomillashtirish»ga bag‘ishlangan uchinchi bobida** amaliy raqamli platformalar samaradorligini milliy iqtisodiyotni rivojlanishi doirasida baholash xususiyatlari va ahamiyatlari, raqamli texnologiyalar samaradorligini iqtisodiyot o‘sishi doirasida baholash hamda elektron hukumat rivojlanishida raqamli texnologiyalar ahamiyati va uni baholash masalalari yoritilgan.

Iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni qo‘llash jarayonlari ko‘p jihatdan ularning amaliy jihatlarini yoritishni va samarasi qanday omillar bilan belgilanishiga bog‘liqdir. Raqamli platformalarga amaliy raqamli texnologiyalarning muhim

[20] Tadqiqot hisoblashlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ahamiyatini, shu bilan birga, ularning samaradorligini yaqqol ko‘rsata oladigan mexanizm sifatida qarash mumkin.

Platforma - turli ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalarni ta’minlaydigan korxona bo‘lib, ishtirokchilar uchun ochiq infratuzilmani taqdim etadi va qoidalarni o‘rnatadi. Platformaning asosiy vazifasi - foydalanuvchilar o‘rtasida munosabatlar o‘rnatish uchun aloqa yaratishdan iborat bo‘lib, mahsulot yoki ijtimoiy valyuta almashinuvida hamkorlik qiladi hamda shu yo‘l bilan barcha ishtirokchilar tomonidan qiymat yaratilishiga hissa qo‘shishidir.

Raqamli platformalar ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilarga bir-biri bilan o‘zaro hamkorlikda qiymat yaratish imkonini beruvchi biznes-modellardan foydalanadigan ko‘p manfaatli bozor ekanligi ta’kidlangan.

Platforma kompaniyaning asosan tor doiradagi faoliyati ko‘lamini kengaytirib tashqariga olib chiqadi. Platformaning asosiy qiymati foydalanuvchilar jamoasi tomonidan yaratiladi, shuning uchun u biznesning fokusini ichki faoliyatdan tashqi faoliyatga o‘tkazish zaruriyati yuzaga keladi.

Platformalarning uzluksiz rivojlantirilib borilishi ta’lim, ommaviy axborot vositalaridan tortib sog‘liqni saqlash, energetika va davlat boshqaruvigacha bo‘lgan iqtisodiyot va jamiyatning deyarli barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning iqtisodiy samarasini oshiradi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning asosiy elementlaridan biri sifatida raqamli platformalarni keng rivojlantirish uchun mas’ul tashkilotlar raqamli rivojlanishga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy sohalarga, jumladan, qulay tartibga solish muhiti va samarali ma’lumotlarni boshqarish siyosatiga talabi bor tashkilotlarga e’tiborlarini qaratishlari kerak. Demak, platformaning asosiy funktsiyasi ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarni birlashtirish, ularga almashinuvning uchta - axborot, mahsulot va valyuta shakllari orqali ishtirok etishiga imkon berishdir. Iqtisodiy o‘sishning katta qismi zamonaviy texnologiyalar, jumladan, jadal rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar rivojiga bog‘liq.

Raqamli bozor maydonini shakllantirish, birinchi navbatda, bozorni kengaytirishga imkon beradigan yangi mahsulotlar va ularga xizmat ko‘rsatish tizimini yaratish hisobiga sanoat sohasida raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. To‘liq ishlaydigan raqamli bozor bir vaqtning o‘zida ko‘plab yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan birga iqtisodiyotning real sektorida yuqori daromad keltirishi mumkin.

Raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish dunyoning ko‘plab davlatlari uchun iqtisodiy o‘sishning zaruriy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini raqamlashtirilishi, birinchi navbatda, yangi daromad manbalarini shakllantirish va mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari doirasini kengaytirishga sharoit yaratadi. Iqtisodiyotning bunday tarzda qayta shakllantirilishi global raqobatbardoshlikning oshishiga va aholi turmush sharoitining yaxshilanishiga olib keladi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi ikki tomonlama tavsifga ega bo‘ladi. Bu, bir tomondan, jamiyatda ishlab chiqarish tuzilmasi va umuman iqtisodiyotda iqtisodiyot sub’ektlaridan xarajatlarni kamaytirish bo‘yicha samarali choralar ko‘rishni talab qiladigan sifat o‘zgarishlari ko‘rinishida yuzaga

kelishi mumkin bo‘lgan risklarni keltirib chiqaradi, ikkinchi tomondan, bu risklarni minimallashtirishning raqamlashtirish jarayoni taqdim etadigan progressiv imkoniyatlarga asoslangan mexanizmi yaratiladi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonining ikkilanganligi an’anaviy iqtisodiyotda mavjud malaka va kasblarga ega bo‘lgan ishchilarni mehnat bozoridan siqib chiqarilishi va sifat jihatidan yangi ishchi kuchini yaratilishida namoyon bo‘ladi.

Raqamlashtirish jarayoni nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratishga, balki raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan yangi ijtimoiy xulq-atvorni me’yorlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi, bu esa iqtisodiy sub’ektlar o‘rtasida yuqori darajadagi ishonchga erishish imkonini beradi. Bularning barchasi jamiyatning muvaffaqiyatli raqamli transformatsiyasi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanishi ta’kidlangan. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoiti yangi talablarni keltirib chiqargani bois iqtisodiy o‘sishning an’anaviy omillarining harakatlantiruvchi kuch sifatidagi ahamiyatiga ta’sir ko‘rsatadi, rivojlanayotgan mamlakatlar bilan rivojlangan mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutni qisqartirishga, aholi turmush darajasi va sifatini sezilarli darajada oshirishga qaratilgan choralar samarasini oshirishga, ta’limni raqamlashtirish jarayonini tezlashtirilishi yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoit yaratib, mehnat resurslarini iqtisodiy munosabatlarga jalb qilish va natijada ishsizlik muammosini kamaytirishga imkon beradi, raqamli texnologiyalardan foydalanish ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha sohalarida mehnat unumdorligi oshishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Davlat sektori kompaniyalari va aholi uchun xizmatlarni taqdim etishning tezkor hamda samarali jarayonlarini yaratishda ishlab chiqarishni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda qayta shakllantirish katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Davlat bu jarayonni keng doiradagi, jumladan, raqamli innovatsiyalar uchun sharoit yaratish, yaratilgan innovatsiyalarni jahon bo‘ylab joriy etilishiga erishish, strataplar uchun ekotizimni takomillashtirish, raqamlashtirish sohasida qo‘shimcha ta’lim tizimini rivojlantirishni, shu jumladan tegishli qayta tayorlash va malaka oshirish dasturlarini amalga oshiruvchi ilmiy-ta’lim muassasalarini qo‘llab-quvvatlash orqali ta’minlash yo‘nalishlarida qo‘llab-quvvatlashi ahamiyatga molik hisoblanadi.

Ma’lumotlarni boshqarish axborot tizimi elektron hukumat tizimida alohida o‘rin tutib, ma’lumotlarni boshqarish axborot tizimi (MBAT)davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati bilan bog‘liq mavjud va kelgusida ishlab chiqiladigan barcha axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalarini yagona integratsiyalashgan tizimga birlashtirish – integratsiya qilinishiga imkoniyat yaratadi, davlat organlari va tashkilotlaridan olinayotgan ma’lumotlardagi (raqamlardagi) tafovutlarni bartaraf etish maqsadida bir turdagi ma’lumotlar to‘plami va axborotning yagona manbadan olingan holda shakllantirilishini ta’minlash imkoniyatini yaratadi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni onlayn ravishda avtomatik shaklda umumlashtirish, tahlil qilish va kelgusida prognozlash imkonini beradi, bir vaqtning o‘zida taqdim etilayotgan statistik hisobotlar va ma’lumotlarning ishonchliligi, haqqoniyligi va dolzarbligi darajasini oshiradi, davlat organlari va tashkilotlaridan ma’lumotlarni tezkor yig‘ish va real vaqt tartibida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi holati monitoringi olib borilishi va tahlil qilinishini

ta’minlaydi, tegishli davlat tashkilotlariga real vaqt tartibida tezkor va sifatli ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatini taqdim etish funktsiyalarini bajaradi.

Ma’lumotlarni boshqarish axborot tizimini amalga oshirishni raqamli texnologiyalar faoliyati sifatida qaralishi kerakligi asoslangan va muallif tomonidan taklif etilgan elektron hukumat tizimining raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq mantiqiy-funktsional bog‘liqlik sxemasi 4-rasmda o‘z aksini topgan.



4-rasm. Raqamli texnologiyalar va elektron hukumat tizimining mantiqiy-funktsional sxemasi[21]

[21] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning **«O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni istiqbolli rivojlantirish yo‘llari»** deb nomlangan 4-bobida O‘zbekiston hududlari va iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish indikatorlari holati bo‘yicha ma’lumotlarni tizimlashtirish, iqtisodiyot va hududlarda raqamli texnologiyalar rivojlanish darajasini baholashning reyting usullarini amalga oshirish, milliy iqtisodiyotda raqamli va axborot texnologiyalari rivojlanishini kompleks baholash, O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni istiqbolli rivojlantirish yo‘llari va yo‘nalishlari masalalarini echish uchun «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyada belgilab berilgan maqsadli ko‘rsatkichlarni tizimli tahlil qilish uchun yondashuv taklif etilgan.

Buning uchun tegishli belgilashlarni kiritilib strategik maqsad ko‘rsatkichlari uchun quyidagi munosabatlar o‘rinli bo‘ladi:

$$\sum_{i=1}^{13} A_i = 10 \qquad (5); \qquad \sum_{j=1}^{3} B_i = 10 \qquad (6).$$

O‘z navbatida tahliliy amallar uchun esa «maqsadli ko‘rsatkichlar o‘zgarishi va og‘irligi» tushunchasi kiritilgan va quyidagi shartlar belgilangan:

$$\sum_{i=1}^{1\div13} A_i \Big/ \sum_{j=1}^{1\div3} B_j \le 10 \qquad (7); \qquad \sum_{j=1}^{1\div3} B_j \Big/ \sum_{i=1}^{1\div13} A_i \le 10 \qquad (8).$$

Maqsadli ko‘rsatkichlarni tizimli miqdoriy tahlilini amalga oshirish uchun (5), (6), (7) va (8) munosabatlarni qo‘llab tahliliy jadval tuzilgan (3-jadval).

Tadqiq etilayotgan barcha tahliliy jadvallarni tizimli tahlil qilish natijasida quyidagi metodologik yondashuv taklif etilgan. Bu metodologiyaga asosan strategiyada maqsadli ko‘rsatkichlar belgilanganligi bois, ana shu ko‘rsatkichlar va parametrlar doirasigagina tegishli bo‘lgan qat’iy, mos ravishda trendlar aniqlangan. Bundan kelib chiqib umuman olganda qanday maqsadlar qo‘yilishi kerakligi, ularga erishish uchun qanday resurslarni yo‘naltirish zarurligi aniqlashtirilishi mumkinligi ta’kidlangan.

2020-2023 yillar uchun «Raqamli O‘zbekiston-2030» Strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari jadvali va 2-jadval o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik jihatlari tahlili olib borilgan. Buning uchun ishlab chiqilgan davrlar bo‘yicha o‘zgarishiga doir 2-jadval va 3-jadval asosida hisoblab chiqilgan MFI_k qiymatlardan foydalanilgan. Buning uchun quyidagi o‘zgaruvchilar kiritilgan va tenglama ishlab chiqilgan.

$$MFI_{ai}=MFI_i*o‘rtacha\sum a_i \qquad (9);$$

$$MFI=\sum MFI_{ai} \qquad (10).$$

Bu yerda:

a_{ij} – 3- jadvaldagi *i*- qator va *j*- ustun qiymati;

a_i - 3- jadvaldagi 2020-2025 yillar oralig‘idagi ko‘rsatkichlar tartibi.

«Raqamli O‘zbekiston-2030» Strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlarida berilgan ma’lumotlar mazmun-xosligiga ko‘ra bir nechta toifaga guruhlashtirib olingan. «Raqamli O‘zbekiston-2030» Strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlarini tizimlashtirib olinganligi o‘z navbatida AIETSYaYaQQning YaIM ulushiga ta’sir doirasini ham tizimlashtirish imkonini beradi.

3-jadval.

«Raqamli O‘zbekiston-2030» Strategiyasida belgilangan ko‘rsatkichlarning davrlar bo‘yicha o‘zgarishi va og‘irligi[22]

№	2020-2030 yillar						2022-2030 yillar				2025-2030 yillar	
	2020-2022		2020-2025		2020-2030		2022-2025		2022-2030		2025-2030	
	o‘zgarishi (marta)	og‘irligi	o‘zgarishi (marta)	og‘irligi	o‘zgarishi (marta)	og‘irligi	o‘zgarishi (marta)	og‘irligi	o‘zgarishi (marta)	og‘irligi	o‘zgarishi (marta)	og‘irligi
A1	1,71	0,60	2,93	0,66	6,10	0,70	1,75	0,96	3,57	1,22	2,08	1,10
A2	1,10	0,39	1,27	0,29	1,49	0,17	1,15	0,00	1,35	0,46	1,18	0,62
A3	2,22	0,79	2,22	0,50	2,22	0,25	1,00	0,56	1,00	0,34	1,00	0,53
A4	1,10	0,39	1,27	0,29	1,49	0,17	1,15	0,65	1,35	0,46	1,18	0,63
A5	1,28	0,45	1,28	0,29	1,28	0,15	1,00	0,56	1,00	0,34	1,00	0,53
A6	1,06	0,38	1,14	0,26	1,30	0,15	1,07	0,60	1,23	0,42	1,15	0,61
A7	1,76	0,62	2,06	0,47	2,65	0,30	1,17	0,66	1,50	0,51	1,29	0,68
A8	6,00	2,12	8,40	1,91	12,00	1,37	1,40	0,79	2,00	0,68	1,43	0,76
A9	1,80	0,64	2,40	0,54	3,00	0,34	1,33	0,75	1,67	0,57	1,25	0,66
A10	2,00	0,71	3,25	0,74	5,00	0,57	1,63	0,91	2,50	0,85	1,54	0,81
A11	1,50	0,53	1,70	0,39	2,00	0,23	1,13	0,64	1,33	0,45	1,18	0,62
A12	5,00	1,77	14,00	3,18	46,00	5,26	2,80	1,57	9,20	3,13	3,29	1,74
A13	1,71	0,61	2,14	0,49	2,86	0,34	1,25	0,70	1,67	0,57	1,33	0,71

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda har bir ma’lumotlar guruhi uchun (9) va (10)-tenglamalarga asoslangan quyidagi tenglamalar guruhi tuzilgan:

$$MFI = MFI_{a1} + MFI_{a2} + MFI_{a3} + MFI_{a4} \quad (11).$$

$$MFI_{a1} = MFI_1 * (\sum a_{1\text{-}5}/5); \quad (12).$$

$$MFI_{a2} = MFI_2 * (\sum a_{6\text{-}9}/4); \quad (13).$$

[22] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

$$MFI_{a3}=MFI_3*(\sum a_{10,11}/2); \quad (14).$$

$$MFI_{a4}=(\sum MFI_{1,2,3}/3)*(\sum a_{12,13}/3). \quad (15).$$

(3), (4) va (11)-(15) tenglamalarni 2-jadvalning 2020-2023 yillar davri hamda 3-jadvalning 2020-2030 bo‘limidagi 2020-2025 davr og‘irlik ko‘rsatkichlariga qo‘llash natijasida 2020-2023 yillarda MRARIFI qiymati aniqlangan:

MFI=1,24+2,38+13,54+12,23=29,39.

Demak, bu topilgan *MFI* miqdor 2020-2023 yillarda mamlakatda raqamlashtirilgan axborot resurslarining iqtisodiy funktsionallik indeksini bergan. Ishlab chiqilgan tenglamalar yordamida olingan barcha natijalarning iqtisodiy mohiyati izohlangan.

Bu hisob-kitoblarni olib borishdan asosiy maqsad taklif etilgan metodologik tushuncha, ya’ni MRARIFIning mavjud statistik ma’lumotlar hamda «Raqamli O‘zbekiston-2030» Strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari yordamida qanday umumiy ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishini aniqlash, va shu asosda MRARIFIning asosiy mohiyati raqamli texnologiyalarni rivojlantirishi yuzasidan tegishli nazariy va metodologik xulosalar ishlab chiqishdan iboratligi ko‘rsatilgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, p_{ij} va a_{ij} o‘zgaruvchilarni quyidagi ko‘rinishda olish mumkin. p_{ij} ma’lumotlari – 2020-2023 yillar uchun bo‘lsa, a_{ij} ma’lumotlari – 2020-2025 hamda 2025-2030 yillar uchun, ya’ni bunday davrlarni o‘z navbatida tegishli mantiqiy uzviylik bilan, ya’ni AIETSYaYaQQning YaIMdagi ulushlari bilan bog‘lanishi tizimlilik tamoyillariga amal qilishi ko‘rsatilgan. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan hisob-kitoblar natijalariga ko‘ra MRARIFIning prognoz ko‘rsatkichlarini topish tenglamalari ishlab chiqilgan.

Bunday prognoz ko‘rsatkichlariga ega bo‘lish uchun teskari mantiqlash usulidan foydalanilgan. Ya’ni, AIETSYaYaQQning YaIMdagi ulushlari yuzasidan 2020-2023 yillar uchun taqdim etilgan ma’lumotlariga asosan kerakli hisoblashlarni amalga oshirib *MFI=29,39* ekanligi aniqlangan. Keyingi qadamda teskari masala qo‘yish orqali 2020-2025 va 2025-2030 davrlar oralig‘ida MRARIFI qanday ko‘rsatkichni tashkil etishi mumkinligi prognoziga olib keluvchi tenglamalar tuzilgan. Buning uchun *MFI=R* sharti qo‘yilgan, u holda *R* funktsional indeks (10) tenglamaga asosan quyidagiga teng bo‘lgan:

$$R=MFI_{ai}=MFI_{a1}+MFI_{a2}+MFI_{a3}+MFI_{a4} \quad (16),$$

yoki (11)-(15) tenglamalarga asosan:

$$R= MFI_1*\sum a_{1\text{-}5}/5+ MFI_2*\sum a_{6\text{-}9}/4+ MFI_3*\sum a_{10,11}/2+((\sum MFI_{1,2,3}/3)*(\sum a_{12,13}/3)) \quad (17).$$

R ni kiritishdan maqsad turli qiymatlarda tahlil etish mumkinki, o‘sha turli qiymatlarga mos ravishda MRARIFI turlicha qiymatga ega bo‘ladi.

Ammo, prognoz qilinayotgan yillar davri uchun MFI_k qiymatlar noma'lum x_k qiymatga teng. Demak $MFI_k=x_k$ bo'lganligi uchun $MFI_1=x_1$, $MFI_2=x_2$, $MFI_3=x_3$, $MFI_4=x_4$ deb qabul qilish o'rinli. U holda:

$$R= x_1*\sum a_{1\text{-}5}/5+ x_2*\sum a_{6\text{-}9}/4+ x_3*\sum a_{10,11}/2+(\sum x_{1,2,3}/3)*(\sum a_{12,13}/3) \qquad (18).$$

Ammo, x_1, x_2, x_3, x_4 qiymatlarning barchasi bir vaqtning o'zida noma'lum bo'la olmaydi. Ya'ni, bir x_k nomalum bo'lishi bilan bir vaqtda qolgan MFI_{k-1} miqdorlar *const*, ya'ni 6-jadvaldagi qiymatlarga ega bo'lishi ta'kidlangan. Shunday mulohaza qilgan holda, dastlab noma'lum sifatida x_1 qiymat qaralsa, u holda $MFI_1= x_1$ uchun quyidagi (19)-(21) tenglama o'rinli bo'ladi:

$$x_1 = \frac{R - MFI_{\text{a2}} - MFI_{\text{a3}} - MFI_{\text{a4}}}{a_{1-5}} \qquad (19)$$

$$x_2 = \frac{R - MFI_{\text{a1}} - MFI_{\text{a3}} - MFI_{\text{a4}}}{\boldsymbol{a}_{6-9}} \qquad (20).$$

$$x_3 = \frac{R - MFI_{\text{a1}} - MFI_{\text{a2}} - MFI_{\text{a4}}}{\boldsymbol{a}_{10,11}} \qquad (21).$$

x_4 qiymat esa (19)-(21) tenglamalarga asosan topilgan aniq x_1, x_2 va x_3 qiymatlar asosida topilishi ta'kidlangan.

2020-2025 va 2025-2030 davrlardagi og'irlik ko'rsatkichlari, 2-jadvaldagi hisoblangan ko'rsatkichlar hamda ishlab chiqilgan (19)-(21) tenglamalardan qo'llanilib amaliy jihatdan prognozli funktsional ko'rsatkichlar aniqlangan.

(16)-(21) tenglamalar asosida $\boldsymbol{x_k}$ni o'rnini almashtirgan holda 2020-2025 yillar davri uchun MRARIFI qiymati quyidagiga teng bo'lgan:

$$MFI =11,85+12,99+24,15+36,00=84,99$$

Bundan 2020-2025 yillar oraliq davrida mamlakatda raqamlashtirilgan axborot resurslarining iqtisodiy funktsionallik indeksi – MRARIFIning prognozli qiymati 84,99 birlikka teng bo'lishi kelib chiqqan.

Xuddi shunday yo'l bilan 2025-2030 yillar oraliq davri uchun iqtisodiy funktsionallik indeksi hisoblanganda quyidagi prognozli natijalar olingan.

$$MFI =12,68 +12,62 +27,73 +20,69= 73,72$$

MRARIFIning qiymati AIETSYaYaQQning YaIMdagi ulushiga bog'langanligi bois, MRARIFIni o'z navbatida, raqamli texnologiyalar rivojini aniqlashning statistik metodologiyasi sifatida qabul qilingan. Yuqorida aytib o'tilgan uchta davrdagi qiymatlar, ya'ni *29,39; 84,99* va *73,72* miqdorlarni AIETSYaYaQQning YaIMdagi ulushiga bog'lab quyidagilar ta'kidlangan.

Mamlakatda YaIM turli metodikalarga asosan hisoblanadi, shunga ko‘ra AIETSYaYaQQning YaIMdagi ulushi turlicha miqdorda bo‘lishi mumkin; bundan tashqari, hozirgi kunda nazariy-metodologik jihatdan raqamli texnologiyalar rivojining YaIMga ta’sirini baholashga yagona yondashuvning yo‘qligi bois, AIETSYaYaQQning YaIMdagi ulushi *MFI*ga teng bo‘lishi ta’kidlangan. Unga ko‘ra, $P_1=3,05$; $P_2=2,99$; $P_3=23,96$ va *MFI=29,39* birlikka teng. 2020-2025 yillar uchun esa bu ko‘rsatkichlar mos ravishda *29,19; 16,34; 42,75* va *84,99* birlikka teng bo‘ladi.

2020-2023 yillar davriga nisbatan bu ko‘rsatkich deyarli 3 barobar, ya’ni *84,99/29,39=2,89* birlikka oshganligi aniqlangan. Unda o‘zgarish *84,99/3=28,3* ga, umumiy o‘zgarish esa *28,3*2,89=81,8* ga teng bo‘ladi. Lekin, avval aytib o‘tilganidek, AIETSYaYaQQning YaIMdagi ulushiga nisbatan P_1, P_2 va P_3 etib belgilash kiritilganligi boisidan, bu ko‘rsatkichni uchga taqsimlash o‘rinli bo‘lishi, unda o‘zgarish (ya’ni ortishi) *81,8/3=27,3* ga tengligi, demak, *MFI 27,3* ga o‘zgarganligi; 2020-2025 yillarda 2023 yilga nisbatan AIETSYaYaQQning YaIMdagi ulushi *27,3* foizga oshishi ta’kidlangan.

Xuddi shu kabi, 2020-2025 yillar davri baza sifatida qabul qilinib 2025-2030 yillarda o‘zgarishini topish prognoz qilingan. Shu davr oralig‘ida *MFI=73,72* ekanligi inobatga olinsa, unda quyidagi prognoz ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi hisoblab chiqilgan:

2025-2030 yillar uchun bazaviy ko‘rsatkich 2020-2025 yil hisobga olinganligi uchun va yuqoridagi amaliyotni qo‘llab hamda *73,72* birlikning ichida 2020-2025 yillardagi *84,99* qiymat borligini hisobga olgan holda tegishli hisoblashlarni bajarib *73,72/3=24,60; 73,72/84,99=0,86; 24,6*0,86=21,15; 21,15/3=7,05* foizga teng bo‘lishi prognoz qilingan.

Demak, *MFI* 2025-2030 yillarda *21,15* birlikka ortadi. Bundan esa 2030 yilga borib *MFI=27,3%+7,05%=34,35%* ga teng bo‘lishi aniqlangan. Bundan «Raqamli O‘zbekiston-2030» Strategiyasidagi maqsadli ko‘rsatkichlar 2030 yilga borib amalga oshirilganda 2025 yilga nisbatan *MFI* 34,35 foizga oshishi to‘g‘risida xulosa qilingan.

2030 yilda esa 2025 yilga nisbatan AIETSYaYaQQning YAIMdagi ulushi shu raqamga, ya’ni 34,35 foizga oshadi, bundan tashqari, MRARIFIning ta’rifiga ko‘ra raqamlashtirilgan axborot resurslaridan foydalanish samaradorligi 2025 yilga nisbatan 2030 yilga borib *34,35* foizga oshishi prognoz qilingan.

Dissertatsiyaning bo‘limlarida ko‘rib chiqilgan raqamli texnologiyalardan foydalanishning ijobiy ta’siri va risklaridan, shuningdek, tahlil qilingan milliy iqtisodiyotlarni raqamlashtirishni rivojlantirish va rag‘batlantirish bo‘yicha yetakchi mamlakatlar tajribasini o‘rganishdan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni qurishning ustuvor yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish asoslangan: raqamli iqtisodiyotga o‘tishni mafkuraviy kuzatib borish; raqamli iqtisodiyot inson kapitalini rivojlantirish; Raqamli iqtisodiyotga o‘tishning huquqiy ta’minoti; iqtisodiyotning real sektorlarini raqamlashtirish; davlat xizmatlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish; bank sektorini raqamli transformatsiyasi; kiberxavfsizlikni ta’minlash; AKT infratuzilmasini takomillashtirish.

Shunday qilib, raqamli transformatsiyaning taklif etilayotgan maqsadi, rivojlanish ustuvor yo‘nalishlari va bosqichlaridan O‘zbekiston Respublikasining

raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha navbatdagi 2030 yilgacha bo‘lgan oraliq davr uchun Davlat dasturlarini ishlab chiqishda konseptual asos sifatida foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlangan. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatdagi raqamli iqtisodiyot rivojlanishining indeksi ko‘rsatkichi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining uzoq muddatli salohiyatli o‘sishi, faqat chet eldan muvaffaqiyatli loyihalarni olib kirish va mahalliy raqamli texnologiyalarni yaratish hisobiga yiliga 3,1 foiz o‘sishni ta’minlashi mumkin.

XULOSA

Dissertatsion tadqiqotni bajarish jarayonida quyidagi xulosalar olindi:

1. Iqtisodiyotning raqamlashtirish kontseptsiyasiga iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan foydalanish, yangi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish bosqichlarini o‘rganish asosida aniqlik kiritish zarurki, natijada ATning ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga kirib borishi hamda rivojlanishi bilan birinchi navbatda individual boshqaruv funktsiyalari, so‘ngra butun iqtisodiy tizimlar o‘zgaradi. Raqamlashtirish - bu avtomatlashtirish va axborotlashtirishdan keyingi raqamli texnologiyalarni qo‘llashning navbatdagi bosqichi bo‘lib, u milliy iqtisodiyotda alohida ATdan emas, balki jamiyat tomonidan to‘plangan jami iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish bilan tavsiflanishi zarur.

2. Iqtisodiyotni raqamlashtirishda raqamli texnologiyalarga asoslangan faoliyatni raqamli platformalar, buyumlar interneti, katta ma’lumotlar, sun’iy intellekt, taqsimlangan reestr, virtual va kengaytirilgan texnologiyalarni joriy etish orqali axborot bilan ta’minlashning yangi usullaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlarining axborotlashtirish bosqichida raqamli texnologiyalar faoliyatini axborotlar bilan ta’minlashning rivojlantirilishiga olib keladi. Yangi usullar raqamli ma’lumotlarni aqlli avtomatlashtirilgan qayta ishlash tartibini o‘z ichiga oladi, milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar infratuzilmasidan birgalikda foydalanishga erishiladi. Biroq, bu usullardan foydalanish raqamli texnologiyalar faoliyatini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga, ya’ni raqamli texnologiyalar muhitini shakllantirishga yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

3. Milliy iqtisodiyotda mavjud axborot resurslarining eng muhim turlari mavjudki, iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlarida samarali raqamli texnologiyalarni yaratish uchun sharoit yaratadi. Eng muhim resursning birinchi turi - bu fan va texnika rivojlanishining global darajasi, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar, shuningdek, mijozlar va hamkorlar faoliyatini tavsiflovchi raqamli ma’lumotlar, atrof-muhit parametrlari holati va turli xil ma’lumotlardan iborat kontent hamda internet-buyumlardan tashkil topgan bo‘lishi kerak.

Resursning ikkinchi turi - hisoblash qurilmalari, telekommunikatsiya tarmoqlari va dasturiy ta’minotni birlashtirib turadigan texnologiyalar. Texnologiyalar axborot resurslarini to‘plash va ularni keyinchalik avtomatlashtirilgan qayta ishlash, shu

jumladan intellektual qayta ishlash tezligini ko‘p marta oshirish uchun barcha sharoitlar yaratilishi zurur.

Resursning uchinchi turi - kompetentsiyalar bo‘lib, u sub’ektlarning (mutaxassislar va tashkilotlar) samarali raqamli texnologiyalarni yaratish uchun kontent va texnologiyalardan foydalanish qobiliyati hamda bilimlaridan iborat bo‘lishi kerak.

4. Metodologik yondashuv asosini tashkil etuvchi mamlakatda raqamlashtirilgan axborot resurslarining iqtisodiy funktsionallik indeksi (MRARIFI) kategoriyasining (tushunchasining) amaliy jihatlari tegishli yillar bo‘yicha ma’lumotlarning mantiqiy uzviylik xususiyatlarini ochib beradi, ya’ni bu ma’lumotlarning AIETSYaYaQQning YaIMdagi ulushlari bilan bog‘liqligi tizimlilik tamoyillariga asoslanadi. MRARIFI – bu axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida axborot resurslarining raqamlashtirilishi mumkin bo‘lgan jami axborotlardan foydalanish samaradorligini ko‘rsatuvchi indeksdir. Unga ko‘ra, MRARIFI qiymatlari «Raqamli O‘zbekiston-2030» Strategiyasi maqsadli ko‘rsatkichlari hamda axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik) qiymatlarining tizimli tahliliga tayanib aniqlanadi.

Mamlakatda raqamlashtirilgan axborot resurslarining iqtisodiy funktsionallik indeksining prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishi holati to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar asosida shakllantirilgan tegishli jadvallar va «Raqamli O‘zbekiston - 2030» Strategiyasida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash orqali topilishi kerak.

5. Amaliy platformalarning asosiy funktsiyasi ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarni birlashtirish hamda ularga almashinuvning uchta - axborot, mahsulot hamda valyuta shakllari orqali ishtirok etishiga imkon berishdan iborat. Raqamli bozor maydonini shakllantirish, birinchi navbatda, bozorni kengaytirishga imkon beradigan yangi mahsulotlar va muqobil xizmat ko‘rsatish tizimini yaratib, iqtisodiyot sektorlarida teng huquqli raqobatbardoshlikni kuchayishiga olib keladi.

6. Milliy iqtisodiyot iqtisodiy resurslari to‘plami (mavjudligi) har qanday iqtisodiy jarayon va ijtimoiy munosabatlar asosi ekanligini inobatga olib ularni - mehnat, tabiiy, axborot va kapital resurslar ko‘rinishida ajratib olinishi ularni raqamli texnologiyalar rivojlanishida asos qilib olinishiga imkon beradi, bu yerda eng muhim jihat iqtisodiy resurslardan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish nuqtai nazaridan foydalanish zarurligini belgilab beradi. Shu bilan birga bunday foydalanishda ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy munosabatlar va raqamli iqtisodiyotni rivojlanganligi holatidan iborat mantiqiy bog‘liqlik bo‘lishi zarur.

7. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida raqamli texnologiyalar jarayonida «Elektron hukumat» faoliyati misolida axborotga bo‘lgan ehtiyojni qondirish usuli ishlab chiqildiki, bu usulning afzalligi samarali raqamli texnologiyalarni yaratish uchun aholi, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar va davlat idoralarining axborotga bo‘lgan ehtiyojlari qondirilishini o‘zaro manfaatli hamkorlik sifatida qaraladi. Raqamli iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar faoliyatining eng muhim funktsiyasi bu raqamli texnologiyalarning “Elektron hukumat” bilan bog‘liqlikdagi faoliyatida iqtisodiy

resurslarning axborot turlaridan samarali foydalanishni ta’minlashdan iborat bo‘lishi kerak.

8. Iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan foydalanishda yuzaga keladigan iqtisodiy samaradagi farqni belgilaydigan qonuniyat borki, raqamli texnologiyalar faoliyati uchun iqtisodiy resurslarning axborot turlaridan samarali foydalanish imkoniyati yo‘qligi sharoitidagi raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samarasi ularga to‘liq kirish sharoitlariga qaraganda past bo‘lishini isbotlaydi. Raqamli texnologiyalar faoliyatini tizimli axborot bilan ta’minlashda milliy iqtisodiyotda mavjud iqtisodiy resurslar majmuining samaradorligiga erishish muhim hisoblanadi. Ularni raqamlashtirish bu samaradorlikning asosi bo‘lishi kerak. Kontent yoki vakolatlarga kiritilgan axborot resurslari turlaridan foydalanish cheklanganligi sharoitida esa raqamli texnologiyalardan foydalanish xarajatlari ulardan olinadigan foydadan oshib ketmasligiga ahamiyat berish zarur.

9. Olib boriladigan hisoblashlarda «marta o‘zgarish» va uning «og‘irligi» tushunchalarini ishlatilishi (*13±k*)ta maqsadli ko‘rsatkich hamda yillar davriy oraliq ketma-ketligini shakllantirishga imkon beradi. Bundan kelib chiqib, raqamlashtirishda, umumiy holda qanday maqsadlar qo‘yilishi kerakligi, ularga erishish uchun qanday resurslarni yo‘naltirish zarurligini aniqlashtirish mumkin bo‘ladi. Umuman olganda, har qanday iqtisodiy jarayonlarni tavsiflovchi u yoki bu loyihalarni, jumladan, «Raqamli O‘zbekiston-2030» Strategiyasida ko‘zda tutilgan loyihalarni kompleks miqdoriy tahlil etishda modellashtirish, oraliq tahlil va o‘sish sur’atlari kabi usullardan foydalanish zarur.

10. O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni istiqbolli rivojlantirish yo‘llari va yo‘nalishlarini aniqlashga tizimli-funktsional yondashuvga ko‘ra, bunday yo‘llar va yo‘nalishlarni raqamli texnologiyalarni tashkil etuvchi funktsional elementlari alohida, ularning tizim tashkil etuvchilari sifatida belgilangan chora-tadbirlar miqdoriy baholanishi hamda bu chora-tadbirlar yaqin va uzoq kelajakda aniq ko‘rsatkichlarni tahlil etish natijasi asosida miqdoriy baholanishi kerak.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 19/04.07.2023.I.88.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛСТВА

ВЫСШАЯ ШКОЛА БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛСТВА ПРИ КАБИНЕТЕ МИНИСТРОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

РУЗИЕВ АБДУМАЛИК АРТИГАЛИЕВИЧ

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ПЕРСПЕКТИВНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЦИОНАЛНОЙ ЭКОНОМИКЕ

08.00.16 – Цифровая экономика и международная цифровая интеграция

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора экономических наук (DSc)

Ташкент - 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B22024.2DSc/Iqt733.

Диссертация выполнена в Высшей школе бизнеса и предпринимательства.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:	**Суюнов Дилмурад Халмуродович** доктор экономических наук, профессор
Официалные оппоненты:	**Абдувохидов Абдумалик Махкамович** доктор экономических наук, профессор
	Кучкаров Тахир Сафарович доктор экономических наук, профессор
	Хошимов Элмурод Абдусатторович доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация:	**Ташкентский университет информационных технологий**

Защита диссертации состоится «____» _____ 2025 года, в _____ часов, на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней DSc 19/04.07.2023.I.88.01 при Высшей школы бизнеса и предпринимательства, по адресу: 100060, г. Ташкент, ул. Мирабад, 25. Тел.: (99871) 239-03-05; факс: (99871) 239-03-03; эл. почта: info@rgsbm.uz.

С диссертацией можно ознакомится в отделе внедрения информационно-коммуникационных технологий Высшей школы бизнеса и предпринимательства (зарегистрировано № _____). Адрес: 100060, г. Ташкент, ул. Мирабад, 25. Тел.: (99871) 239-03-05; факс: (99871) 239-03-03; эл. почта: info@rgsbm.uz.

Автореферат диссертации разослан «_____»_____ 2025 года.
(Протокол реестра № ____ от «____»_____ 2025 года).

Д.Х.Суюнов
Председатель Научного совета, по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Т.У.Кадыров
Секретар Научного совета, по присуждению ученых степеней, кандидат экономических наук, профессор

А.Т.Кенжабаев
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктор наук (DSc)

Цифровая трансформация, признанная ключевым фактором экономического развития и развивающаяся быстрыми темпами, находится в процессе реализации. Ожидается, что доля инвестиций в передовые цифровые технологии в мировых расходах достигнет 23,4% к 2023 году, сохраняя устойчивые тенденции роста[23]. Почти две трети мировой цифровой экономики приходится на долю США и Китая. В США, где проживает 4,2% населения мира и 26% мирового ВВП, приходится 42% мировых расходов на технологии. В экономике Китая наиболшую долю цифровой экономики занимает электронная коммерция: в 2024 году 39% розничных продаж осуществлялос онлайн, а к 2028 году эта цифра увеличится до 41%. В стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» особое внимание уделяется цифровизации важных отраслей, а основными задачами определены внедрение новых технологий в сферу государственных услуг, судебную систему, правоохранителные органы, систему управления дорожным движением, систему здравоохранения, социалные услуги, банковский и селскохозяйственные секторы и другие основные отрасли националной экономики[24].

Существует ряд проблем в совершенствовании методологии оценки перспектив развития цифровых технологий в националной экономике. В частности, ввиду высоких темпов развития цифровых технологий система критериев их оценки требует постоянного обновления. Во-вторых, неравномерност развития цифровой экономики в разных странах и качественные различия в предоставляемых статистических данных приводят к ряду трудностей при анализе и оценке результатов. В-третих, посколку в международной практике не сформирована в полной мере единая международная система показателей, позволяющая точно измерят эффективност цифровых технологий, не разработана методология обоснования и применения этих показателей. Различные методики оценки индексов, опубликованные в научных источниках, носят скорее теоретический характер и приводят к различным методическим трудностям при их практическом применении в реалных ситуациях. В-четвертых, слабо разработаны комплексные подходы к системной оценке влияния цифровой трансформации на экономику. Эти факторы затрудняют научную оценку перспектив цифровых технологий в националной экономике и совершенствование основ развития.

В Стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы в качестве одной из основных целей обозначена трансформация цифровой экономики в основной «драйверный» сектор в обеспечении благосостояния населения посредством устойчивого экономического роста и обеспечения высоких темпов роста. В частности, за счет далнейшего развития цифровой инфраструктуры

[23] IDC [IDC (2020). Global ICT Spending. Forecast 2020–2023].

[24] Michael O'Grady. The Global Digital Economy Will Reach $16.5 Trillion And Capture 17% Of Global GDP By 2028. Forecast Analyst. July 23 2024. https://www.forrester.com/blogs/the-global-digital-economy-will-reach-16-5-trillion-and-capture-17-of-global-gdp-by-2028/

